Ikkinchi jahon urushida o‘zbek xalqi ko‘rsatgan jasoratga bag‘ishlangan anjuman

O‘zbekiston Fanlar akademiyasi huzuridagi O‘zbekistonning eng yangi tarixi masalalari bo‘yicha Muvofiqlashtiruvchi-metodik markazi hamda Mudofa vazirligi G‘alaba Bog‘i yodgorlik majmuasi Shon–Sharaf muzeyi bilan hamkorligida “Ikkinchi jahon urushi va O‘zbekiston xalqi: tadqiqotlar” mavzusidagi respublika ilmiy konferensiyasi bo‘lib o‘tdi.



Konferensiyada doirasida Markazdagi “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” mavzusidagi maqsadli amaliy loyiha doirasida tayyorlangan “O‘zbekiston Ikkinchi jahon urushi davrida” nomli uchinchi kitob-albom taqdimoti ham o‘tkazildi.

